IRFONIY BILIMLAR XAZINASI

Isaqova Zamiraxon Ruhitdinovna, falsafa fanlari doktori (DSc), professor v.b.
Namangan davlat universiteti, O‘zbekiston.
e-mail: ms.outstanding@mail.ru
Tojiboeva Mushtariybonu Tojiboy qizi, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi.
e-mail: tojiboyevamushtariybonu22@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada bayoz janri, uning tuzilishi, bayoz san’atining yashovchanligi ilmiy-falsafiy tahlil etilib, namanganlik Mulla Muhammad Obid Namangoniy tomonidan tuzilgan “Tuhfat ul-obidin va anis ul-oshiqin” bayozi ilk bor ilmiy muomalaga kiritilgan. Shuningdek, bayozda XIX asrda yashagan ma’rifat shaydosi, namanganlik Mavlono Yormuhammad Muxlis Namangoniy hamda Obid Namangoniyning ijod namunalari irfoniy talqin etilib, bayozning yoshlar ma’naviy kamolotidagi o‘rni va ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: bayoz, Tuhfat ul-obidin, irfon, ma’rifat, ilohiy ishq, axloqiy ideal, hol, maqom, nafs tarbiyasi, kamolot yo‘li.

АКАДЕМИК ИБРАХИМ МУМИНОВ: МОЙ ПЕРВЫЙ УЧИТЕЛЬ – МОЯ МАМА

Аннотация. в данной статье отражены воспоминания академика Ибрагима Муминова, заложившего краеугольный камень узбекской философской школы, и его родителей, уважаемой сестры Магфират. Также были проанализированы исследования ученого о развитии науки.

Ключевые слова: Ибрагим Муминов, ученый, наука, мыслитель, женщина, мать, эпоха Возрождения, ученые, человеколюбивая порода, прогрессивный мыслитель, нация.

TREASURY OF IRFAN KNOWLEDGE

Annotation. The article scientifically and philosophically analyzed the genre of bayaz, its structure, the viability of bayaz art, for the first time introduced into scientific circulation the bayaz “Tuhfat ul-abidin va anis ul-ashikin”, compiled by Mulla Muhammad Obid Namangani. The works of Mavlana Yarmuhammad Mukhlis Namangani and Obid Namangani, who lived in the 19th century, were also

interpreted in an irfanic way, the role and significance of bayaz in the spiritual maturity of youth was revealed.

Keywords: bayaz, Tukhfat ul-Abidin, irfan, divine knowledge, divine love, moral ideal, maqam, spiritual station, education of nafs, path of improvement.

Kirish. Bayoz[1] ikki va undan ortiq shoirlarning she’rlari jamlangan to‘plam bo‘lib, asosan lirik janrdagi asarlardan tarkib topgan. Ilk bayozlar arab she’riyati rivojlangan davr (VIII-X asrlar)da yuzaga kelgan bo‘lsa, Turkistonda bayozchilik X - XV asrlar she’riyati ta’sirida vujudga kelgan. XVIII-XIX asrlarga kelib, bayozlar mundarijasi va mazmun ko‘lami bilan san’at asari darajasida mukammallashgan.

Bayozlar devondan farqli, muayyan qoidalar zanjiridan xoli, ya’ni uning bob va paragraflari bo‘lmagan. Shoirlar ijodi sharhlanmagan. Qaysi shoirning she’rini bayozga kiritish uni tuzuvchining ixtiyorida bo‘lib, biror g‘oya yoki dunyoqarashni targ‘ib qilishga qaratilmagan. Bayoz sarbayoz, lirik she’rlar, xotima va ilovadan tarkib topgan bo‘lib, shoirlar nomi bayoz mundarijasi sifatida berilgan. Ayrim bayozlarga xalq og‘zaki ijodi namunalari, musiqiy asarlardan parchalar, ham kiritilgan. Bayozlar maxsus kotib, naqqosh, sahhof tomonidan buyurtmachi talabiga ko‘ra, turkiy yoki fors-tojik tillarida tuzilgan. Shu tariqa bayozlar haqiqiy san’at asariga aylanib, o‘ziga xos Buxoro, Xorazm, Toshkent, Farg‘ona bayoz maktablari vujudga kelgan[2] . Bayozlar hozirga qadar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagani shundaki, Turkiston xalqlari adabiyoti tarixida turmush sharoiti og‘irligi tufayli devon tuzmagan shoirlar ko‘p bo‘lgan. Bayozlar tufayli shoirlar ijodini tanqidiy o‘rganishga qo‘l urilgan bo‘lsa, hali nomi chiqmagan ko‘plab shoirlarning ijodini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotning uslubiy asosini ilmiy bilishning ob’ektivlik (xolislik), tarixiylik, vorisiylik, sistemalilik, germenevtika, interpretatsiya, retrospektiv va qiyosiy tahlil usullari tashkil etadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Istiqlolning ne’mati islomiy qadriyatlar, jumladan, ajdodlar ma’naviy merosiga ijobiy munosabat hosilasidirki, qariyb unutilayozgan ko‘hna merosga “jon” ato etildi. Jumladan, bayozlar turkiy xalqlar adabiyoti tarixi hamda maxsus devon tuzmagan shoirlar ijodini o‘rganishda muhim manba sanalgan. Ulardan biri Mulla Muhammad Obid Namangoniy tomonidan tuzilgan “Tuhfat ul-obidin va anis ul-oshiqin” bayozi ilk bor ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, tolmas va fidoyi insonlar, falsafa fanlari nomzodi, dotsent Muhammadrahim aka Safarboev hamda filologiya fanlari nomzodi Sultonmirzo Rahimov tomonidan nashrga tayyorlanib, 2019 yilda Navro‘z nashriyotida chop etilgan[3] .

---

[1] Bayoz – arabcha – oq, oqlik, asarning oqqa ko‘chirilgan nusxasi. Turli shoirlar she’rlaridan terilgan to‘plam.

[2] Bu haqda yana qarang: Hamidova M. Qo‘lyozma bayozlar – adabiy manba. – Toshkent: 1981. – B. 8.

[3] Muhammad Obid Namangoniy. Tuhmat ul-obidin va anis ul-oshiqin // Nashrga tayyorlovchi, tadbil va so‘zboshi muall. f.f.n., dots. M. Safarboyev, fil.f.n. S. Rahimov. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – 240 b.

Ilk bayozlar mashhur shoirlarning she’rlaridan tuzilgan. Ko‘pincha bayozlarning tarkibida ko‘p shoirlarning she’rlari ketma-ket joylashtirilgani uchun kitob ko‘chiruvchilar bir shoirning she’rlarini boshqa shoirning she’rlariga aralashtirib yuborishgan. Hozirga qadar Abul Ali ibn Sino bilan Umar Xayyomning she’rlari jamlangan bayozlarda haqiqiy muallif kim ekanligi noma’lumligicha qolgan. Bundan anglashiladiki, bayoz tuzish muallifdan juda katta mahorat va jiddiy mas’uliyat talab etgan. Shu ma’noda, “Tuhfat ul-obidin” barcha bayozlar uchun namuna bo‘la oladi. Bayoz mudrasa talabalari uchun “xrestomatiya”, she’riyat muhiblari uchun “ishq daftari” bo‘lib xizmat qilgan.

Mulla Muhammad Obid Namangoniy mazkur bayozni tuzishda o‘zi tanlab olgan shoirlarning ijodiga murojaat qilib, har bir shoirning nomini alohida keltirgan.

“Tuhfat ul-obidin” bayozi 1908-yilda Toshkentda Mulla Hasan Orifjonov litografiyasida chop etilganligi e’tiborga olinsa, asar qariyb bir asrdan so‘ng o‘quvchilarga havola etilmoqda.

“Tuhfat ul-obidin” ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismida irfoniy bilimlar sohibi, XIX asrda yashagan ma’rifat shaydosi, namanganlik Mavlono Yormuhammad Muxlis Namangoniy (vaf. 1888 y.)ning ma’rifatni tarannum etgan 66 ta g‘azal, muxammas, musaddas, mustaxzod, munojot, musamman, mutassa’, mu’ashshar, nasihat, hamdlari kiritilgan. Bayozning ikkinchi qismida debocha, Obid Namangoniyning ijodi namunalari hamda o‘sha davrning ko‘zga ko‘ringan mashhur shoirlar Tamkin, Amir, Mashrab, Jomiy, Umidiy, Kamiy Namangoniy, Fazliy, Sohib, Ko‘hiy, Mavlono Shavqiy, Nodir, Ado, Muhiy, Xodimiy, Sayyido, Sodiq, Mavlono Majzub, Zaluliy Namangoniy, Furqat, Muqimiy, G‘oziy, Mahzun, Navoiy, Misriy, Kotib, Xaziniy, Nisbatiy, Nodim, Ramziy Namangoniy, Majrux, Ozariy, Nusrat, Nodira, Shohidiy, Xilvatiy, Solihning kabi diltortar she’rlari va muxammaslari jamlangan.

O‘zbek mumtoz adabiyoti bepoyon chamanzorga qiyoslansa, uning har bir namoyandasi ifori, go‘zalligi, maftunkorligi bilan farqlanib turadigan gul misoli. Ulardan biri hozirga qadar o‘z tadqiqotchisini topa olmagan, to‘liq tadqiq etilmagan irfoniy bilim sohibi, XIX asrda yashagan ma’rifat shaydosi, namanganlik Mavlono Yormuhammad Muxlis Namangoniy (vaf. 1888 y.)dir. Muxlis Namangan shahrida tug‘ilgan bo‘lsa ham, vatanidan yiroqda yashagan. Avval tahsil maqsadida Buxoroda ta’lim olgan. “Devonbegi” madrasasida mudarrislik qilgan. Haj amalini ado etish uchun bir necha yil Afg‘oniston, Turkiya, Arabiston mamlakatlarida umrguzaronlik qilgan.

Muxlis o‘z davrining fozil va orif kishisi bo‘lgan, uning ijodiy merosi rang-barang va ko‘p qirrali, diniy-ma’rifiy, axloqiy-falsafiy ahamiyatga ega. Muxlisning devoni hozirga qadar topilmagan bo‘lsa ham, uning “Tuhfat ul-obidin”ga jamlangan 58 ta turkiy va 8 ta forsiy tilda yozilgan 66 ta ijod namunasi (22 ta g‘azal, 29 ta muxammas, 4 ta musaddas, 3 ta mustaxzod, 2 ta munojot, 2 ta musamman, 1 ta mutassa’, 1 ta mu’ashshar, 2 ta nasihat) shoirning shaxsiyati, dunyoqarashi, diniy-tasavvufiy va falsafiy qarashlari haqida muayyan fikrga kelishga imkon yaratadi.

Inson ko‘ngli irfon xazinasi, ilohiy sirlar tilsimidir[4]. Inson shu sababli buyukdir. Irfon ilohiy sirlarni qalb bilan anglab etish bo‘lib, unga erishgan valiylar “orif” deb ulug‘langan. Ilohiy mohiyatga etish uchun inson muayyan talablarni bajarishi, o‘zining botiniy olami, qalbini har xil dunyoviy qusurlardan forig‘ etishi, ma’naviy bosqich yoki maqomdan o‘tishi darkor. Ulardan muhimi nafs muolajasidir. Nafs insonning o‘zligi, botinida idora etuvchi, jismi, moddiy borlig‘i, hayoti uchun foydali manfaatini qo‘riqlash va qo‘llash maqsadida faoliyat ko‘rsatuvchi “men”ligidir[5] .

Nafs ko‘yida “zavq ila ahli jahon” istagan, “suhbati shirin zabon” istagan, “el aro bir imtihon” istagan, “ohu fig‘on” istagan Obid Namangoniyning dil ohanglarida nafs malomat qilingan:

Kecharga ayshu rohatdin, qani, bizlarga ximmat yo‘q,
Vujuding iksir o‘lsa, zavq ila ahli jahon istar[6] .

“Tuhfat ul-obidin”ning irfoniy manzarasi chuqur falsafiy mushohadani talab etadiki, unda tasavvufning asosiy g‘oyaviy maslagi bo‘lgan ilohiy ishq va axloqiy ideal jozibador badiiy tilda mahorat bilan talqin etilgan, ishq manbai haqidagi ilmi irfon timsol va majozlar vositasida tasvirlangan. Haq va haqiqat, ilohiy ishq, pok axloq haqidagi ezgu g‘oyalar ilhom ta’sirida irfoniy g‘oyalarga aylanib, ma’rifat va haqiqatning ming bir ma’nosi bir nukta (hikmat)da jamlangan. Bu shoir Ado tilida quyidagicha jaranglagan:

Bog‘a kirsak sumbulu gul birla nargisdin uzub,
Zulf birlan ul yuzu ul chashmi shahlodin gapir[7] .

Tasavvufda bandaning Allohga intilishi, Allohni anglash yo‘lidagi riyozatlari “ishq”ning oliy maqomidir. Yor (Alloh) ishqi bilan dardga to‘lgan ko‘ngil hamisha shavqqa to‘lib, yonib turadi. Haqqa bo‘lgan ishq azaliy va abadiydir. Zero, ishq Odam atodan meros qolgan. Ishq muhibning vujudini qamrab olsa, u faqat ma’shuqa (Alloh)ni o‘ylaydigan, boshqa narsa ko‘ngliga sig‘maydigan bo‘lib, nafaqat g‘ayrni, balki o‘zligini ham unutadi. Majzub Namangoniy ishq ummoniga sho‘ng‘iganida o‘zini “ishq o‘tiga cho‘mgan samandaru” jonu dilini Haqqa topshirgan “qalandar”, etti iqlimni zabt etgan “Iskandaru bebolu bepar” qush misoli ifoda etadi:

Dayr piri, boda ichsang, zarra maydin manga ot...
May xumoridin chu arshi ro‘zi Mahsharman bugun[8] .

Fazliy Namangoniy nazarida ishq tili saboning “bog‘”, sarvning “sarvira’no”, pistayu bodomning “handonpista”, ko‘ngilning “majnun”, muammoning “nuktadon”, zuhdning “zohid”, mayning “rind”, jomi musaffoning “oyna” haqida so‘z ochganida ayon bo‘ladi:

Ey mudarris, ishq darsini raumuzidur daqiyq,

---

[4] Muhammad Obid Namangoniy. Tuhfat ul-obidin va anis ul-oshiqin // Nashrga tayyorlovchi, tabdil va so‘zboshi muall.: f.f.n., dots. M. Safarboev, fil.f.n. S. Rahimov. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – B. 23-146.
[5] Jo‘shon M. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. – Toshkent: Cho‘lpon, 1998. – B. 13.
[6] Muhammad Obid Namangoniy. Tuhfat ul-obidin va anis ul-oshiqin // Nashrga tayyorlovchi, tabdil va so‘zboshi muall. f.f.n., dots. M. Safarboev, fil.f.n. S. Rahimov. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – B. 150.
[7] Muhammad Obid Namangoniy. Tuhfat ul-obidin va anis ul-oshiqin // Nashrga tayyorlovchi, tabdil va so‘zboshi muall. f.f.n., dots. M.Safarboev, fil.f.n. S.Rahimov. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – B. 151.
[8] Muhammad Obid Namangoniy. Tuhfat ul-obidin va anis ul-oshiqin // Nashrga tayyorlovchi, tabdil va so‘zboshi muall. f.f.n., dots. M.Safarboev, fil.f.n. S.Rahimov. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – B. 1591.

Muxtasar qil ushbu so‘zni sharhi osodin gapur[9] .

Ishqning ming bir jilosi gul ishqida nola qilayotgan bulbulning nolasi emas, “hajr aro fig‘on” qilayotgan Nodir Namongoniyning g‘azalida go‘zal ifoda etilgan:

Ko‘ngulga solg‘on ul hajr ichra xurshidi jahonimdur,
Chiqargon dudi ohim qomati sarviravonimdur[10] .

Xoja Ahmad Yassaviy ishqni borliqni bilishning,

Alloh ma’rifatini anglashning eng maqbul yo‘li deb bilib: “Har ne qilsang oshiq qilg‘il Parvardigor”[11] deydiki, xazinovoz bilan diydasini “giryon” etgan, o‘sha gulchehraning yodi bilan “afg‘on” etgan, ohu nolasi bilan siynasini “chok” etgan, dardnoki bilan dilini “kon” etgan, so‘zlariga sharhi “hijron” etgan, barcha qushlarni ovoziga “hayron” etgan bulbuldan Kamiy Namangoniy ishqning rangini so‘raydi:

Agar bir gul firoqi birla nolon o‘lsang nechun,
Vujudung bo‘yla xokistarga pinhon etding, ey bulbul[12] .

Ko‘hiy Namangoniyning iltijosida Majnundek g‘amg‘usor, Jayhundek yoshlari toshqin, ma’shuqining ozoridan shikasta holga kelgan, hajr vodiysida gunogun, benavo, mahzun, zaif oshiq namoyon bo‘ladi:

Shahanshahlarga lozimdur xabar olmoq gadolardin[13] .

Misriy Namangoniy visoli tashnasini bir kelib ketishga undaydi:

Gadolar holiga rahm aylamoqqa o‘zgadan yo‘qtur,
O‘shal masnadnishin, albatta, sulton bir kelib ketsun[14]

“Asiri ishq o‘lgan” Furqat esa “g‘urbatda nolon”, “bag‘ri so‘zon”, “dili vayron”, “hasratda nolon”, “yuragini dog‘langan”, “bag‘rini qon aylagan” yorini “nigoro”, “dilnavozim” deb undan shifo umid qiladi:

Kecha-kunduz fikru zikrimsan xayolim, ey habib,
Sandin o‘zga ishq bemoriga yo‘q hoziq tabib,[15]

Nafsga qarshi kurash, nafsni engish, “hol” va “maqom” (“iqom” – ma’naviy mavqe)dan birma-bir o‘tish xuddi “sirot ko‘prigi”dan o‘tish kabidir. Bu yo‘l shunisi bilan ahamiyatliki, “maqom”lardan birini zabt etmasdan ikkinchi “maqom”ga o‘tish yoxud bitta “maqom”da uzluksiz qolish ko‘zlangan maqsadga olib bormaydi. Xurosonlik Abulqosim Abdulkarim Qushayriy (vaf. 1072 y.) “maqom” haqiqatini

---

[9] Muhammad Obid Namangoniy. Tuhfat ul-obidin va anis ul-oshiqin // Nashrga tayyorlovchi, tabdil va so‘zboshi muall. f.f.n., dots. M.Safarboev, fil.f.n. S.Rahimov. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – B. 152.

[10] Muhammad Obid Namangoniy. Tuhfat ul-obidin va anis ul-oshiqin // Nashrga tayyorlovchi, tabdil va so‘zboshi muall. f.f.n., dots. M.Safarboev, fil.f.n. S.Rahimov. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – B. 156.

[11] Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1991. – B. 104 - 105.

[12] Muhammad Obid Namangoniy. Tuhfat ul-obidin va anis ul-oshiqin // Nashrga tayyorlovchi, tabdil va so‘zboshi muall. f.f.n., dots. M.Safarboev, fil.f.n. S.Rahimov. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – B. 152.

[13] Muhammad Obid Namangoniy. Tuhfat ul-obidin va anis ul-oshiqin // Nashrga tayyorlovchi, tabdil va so‘zboshi muall. f.f.n., dots. M.Safarboev, fil.f.n. S.Rahimov. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – B. 160.

[14] Muhammad Obid Namangoniy. Tuhfat ul-obidin va anis ul-oshiqin // Nashrga tayyorlovchi, tabdil va so‘zboshi muall. f.f.n., dots. M.Safarboev, fil.f.n. S.Rahimov. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – B. 169.

[15] Muhammad Obid Namangoniy. Tuhfat ul-obidin va anis ul-oshiqin // Nashrga tayyorlovchi, tabdil va so‘zboshi muall. f.f.n., dots. M.Safarboev, fil.f.n. S.Rahimov. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – B. 169.

tafakkur qilib, “bandaning takror asosida sifat holiga etkazgani odob va axloqdirki, unga riyozat, mujohada bilan erishiladi”[16] deb ta’riflagan.

Mavlono Shavqiyning ko‘ngil izhorida hayot haqiqati mujassam: har kimdan vafo umid qilish nodonlik. Ahdi yolg‘on munofiq. Etti o‘lchab bir kesgan inson pushaymon bo‘lmaydi. G‘amsiz odamning o‘zi yo‘q. Har bir uzuk taqqan kishi Sulaymon bo‘la olmagani kabi, musulmonlik zohiru botinda birdek bo‘lishdir:

Dilingni rost tutgil, zohiru botinda suvdek bo‘l,
Ayo, Shavqiy, budur fahm aylasang rasmi musulmonlig‘[17] .

Xaziniy dunyoning ishlarini tafakkur qilib, inson otliq buyuk sarkarning qilayotgan ishlari g‘alati ekanidan taajjubga tushadi. Shoir nazarida besh kunlik dunyoga bog‘u bo‘stonning, kafandan boshqasini olib keta olmaydigan oxirat dunyosiga baland ko‘shku ayvonning, bir tug‘ilmoq bir o‘lmoq tayin bo‘lgan holda behuda, toatsiz yurishning, bandalik talab qilgani holda ayshu ishratga berilib, g‘aflatda umr o‘tkazishning, o‘lgandan ibrat olmay, xuddi o‘lmaydigandek bema’ni yashashning, o‘lim haqligini bilgan holda g‘aflatda yotishning, besamar o‘tgan kundan armonsiz o‘lishning ma’nisi yo‘q:

Muddaiylar sanga derlar: “Har na aytg‘oning g‘alat”[18] .

“Tuhfat ul-obidin”da aynan nafs tarbiyasi ishqdan keyin etakchi o‘rinlardan birini egallagan. Muxlisning ijodida bu yaqqol ko‘rinadi. Muxlis ijodida malomatdan ko‘ra, pand-nasihat kuchli ifoda etgan. Shoir insonni pir etagidan mahkam tutib, ilohiy haqiqat siriga etishga, ishq otashining samandari bo‘lishga, qurbat hosil qilishga, tarkidunyo qilishga, himmatni baland tutishga, tavba qilishga, ibodatga, ziroatga, Qur’on o‘qishga, bandalik qilishga chaqirgan:

Mis erursan sohibi iksir topib kimyoga et,
Misli Majnun Layli deb, eldin chiqib sahroga et,
Bul tajarrud misli Iyso qurbi omannoga et,
Tarkidunyo qilgilu sarmanzili uqboga et,
Sajdaga boshingni ko‘ygil “Rabbiyal-a’lo”ga et[19]

“Tuhfat ul-obidin”dan joy olgan tasavvufiy-orifona she’rlar insonni zalolatdan kaytarib, hidoyatga yo‘llashga xizmat qilganki, bayozni o‘z davrining milliy tarbiya maktabining namunali “darsligi” deb e’tirof etish o‘rinli. Bayozdan o‘rin olgan ko‘plab she’rlar kuyga solinib, mashhur xofizlar tomonidan ijro etilgan.

Xulosa (**Conclusion**). “Tuhfat ul-obidin”da jamlangan she’rlarning mazmun-mohiyatida islomiy odob-axloq mezonlari to‘liq aks etgan. Bugungi kunda maktablarda milliy tarbiya tizimini takomillashtirish hukumat darajasiga ko‘tarilgan ekan, yosh avlod ongi va tafakkuriga “Tuhfat ul-obidin” kabi o‘lmas asarlarda ilgari surilgan g‘oyalarni singdirish muhim va zarurdir. Olomon madaniyatining ta’siri

---

[16] Abdulkarim ibn Abulkasim Kushayri. Risalya Kushayri. – Baku: Dergyax yayo‘no‘, 1999. – S. 67.

[17] Muhammad Obid Namangoniy. Tuhfat ul-obidin va anis ul-oshiqin // Nashrga tayyorlovchi, tabdil va so‘zboshi muall. f.f.n., dots. M. Safarboev, fil.f.n. S. Rahimov. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – B. 159.

[18] Muhammad Obid Namangoniy. Tuhfat ul-obidin va anis ul-oshiqin // Nashrga tayyorlovchi, tabdil va so‘zboshi muall. f.f.n., dots. M. Safarboev, fil.f.n. S. Rahimov. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – B. 174.

[19] Muhammad Obid Namangoniy. Tuhfat ul-obidin va anis ul-oshiqin // Nashrga tayyorlovchi, tabdil va so‘zboshi muall. f.f.n., dots. M. Safarboev, fil.f.n. S. Rahimov. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – B. 50.

shiddat bilan avj olayotgan, inson ongiga u xohlamagan g‘ayriinsoniy g‘oya va nazariyalarni singdirishni bosqichma-bosqich amalga oshirishning mashhur kontseptsiyasi bo‘lgan “Overton oynasi”[20] ni qo‘llash kabi xavf-xatarlarning oqilona echimi irfoniy bilimlar xainasi bo‘lgan mumtoz adabiyot namunalaridir. Ayni pallada kelajak avlodni o‘tmish ma’naviy meros orqali tarbiyalash kechiktirib bo‘lmas zaruriyatdir.

Hassos tarjimonlar, falsafa fanlari nomzodi, dotsent Muhammadrahim aka Safarboev hamda filologiya fanlari nomzodi Sultonmirzo Rahimovlarning tarjimani amalga baholarga loyiq oshirishdagi xizmatlari oliy. Matndagi arab va forsiy, shuningdek, turkiy so‘zlarning ma’nolari to‘g‘ri anglashilishi uchun so‘zlarning o‘zbekcha tarjimasi matn ostiga havola qilingan. Qur’on oyatlari va hadislarning mohiyatini to‘la tushunish uchun izohlar bilan boyitilgani kitobning ilmiy va amaliy qimmatini oshirishga xizmat qiladi.

Takliflar (Recommendations). Irfon ahlining ijodiy merosi rang-barang va ko‘p qirrali, diniy-ma’rifiy, axloqiy-falsafiy ahamiyatga ega bo‘lish bilan birga, eng muhimi, hech kimnikiga o‘xshamaydigan, takrorlanmas ma’naviy meroslari nafaqat o‘z davri afkor ommasi, balki kelajak avlod uchun ham daxldordir. Ularning insoniylikka chaqiriqlari uyg‘oq qalbdan otilib chiqqan so‘z gavharlaridir.

“Tuhfat ul-obidin” XVIII-XX asr boshlaridagi o‘zbek, tojik va boshqa xalqlar adabiyoti tarixini o‘rganishda muhim qo‘llanma bo‘lish bilan birga, devoni mavjud bo‘lmagan mumtoz shoirlarning ijodini o‘rganish, aniqlik kiritish, tadqiq etish, talqin qilishda noyob manbadir.

“Tuhfat ul-obidin”da o‘rin olgan Tamkin, Sohib, Kamiy Namangoniy, Kuhiy, Xodimiy, Obid Namangoniy, Zaluliy Namangoniy, Mahzun, Misriy, Kotib, Nisbatiy, Ramziy Namangoniy, Sayyid, Sodiq Ozariy, Nusrat, Shohidiy kabi shoirlarning ijodini o‘rganish, ularning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini tahlil qilish, ular ilgari surgan gumanistik va tasavvufiy g‘oyalarning umumbashariy ahamiyatini ochib berish, ularning O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qo‘lyozmalar instituti manbalar xazinasi va dunyo kutubxonalarida saqlanayotgan asarlarini topish, tadqiq etish, yangi talqindagi tadqiqotlar bilan she’riyat muxlislarini bahramand etish muhimdir.

[20] Overton oynasi – jamiyatga butunlay yot bo‘lgan, jamoatchilik tomonidan keskin rad etiladigan g‘oya va nazariyalarning bosqichma-bosqich muayyan streotip va taktikalar asosida jamiyat ongiga singdirish va jamiyatning qadriyatlarini butkul yo‘q qilishning olti bosqichli texnologiyasi. Bu kontseptsiyani ishlab chiqqan amerikalik yurist J. Overton (vaf. 2003 y.) xotirasiga shunday atalgan. Bu haqda qarang: Верещагин О., Белова Н. Фрейманалитика: опыт эпистемологического исследования // Ученые записи Орловского государственного университета – Scientifik notes of Orel State University. – Орел, 2015. ¹ 6 (69). – С. 302-305.